**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI**

**ABDULLAYEVA GULRUX SHUKURULLO QIZI**

# ALGEBRAIK-GIPERBOLIK NATURAL SPLAYNLARNI QURISH

**01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika**
**(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**UO‘K: 519.652.3**

**Fizika – matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по физико – математическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on physical – mathematical sciences**

**Abdullayeva Gulrux Shukurullo qizi**
**Algebraik- giperbolik natural splaynlarni qurish**. . . . . 3

**Абдуллаева Гулрух Шукурулло кизи**
**Построение алгебраически-гиперболических натуральных сплайнов**. . . . . 21

**Abdullaeva Gulrukh Shukurullo qizi**
**Construction of algebraic-hyperbolic natural.splines** . . . . . 39

**E’lon qilingan ishlar ro‘yxati**
Список опубликованных работ
List of published works . . . . . 43

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**
**HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI**
**DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**V. I. ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI**

**ABDULLAYEVA GULRUX SHUKURULLO QIZI**

# ALGEBRAIK-GIPERBOLIK NATURAL SPLAYNLARNI QURISH

**01.01.03-Hisoblash matematikasi va diskret matematika**
**(fizika-matematika fanlari)**

**FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
**bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi**
**AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2026**

**Fizika–matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.2.PhD/FM1296 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus(rezyume)) Ilmiy kengash veb – sahifasi (http://ik-fizmat.nuu.uz) va “Ziyonet” axborot ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

| | |
|---|---|
| **Ilmiy rahbar:** | **Nuraliyev Farhod Abdug‘aniyevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, dotsent |
| **Rasmiy opponentlar:** | **Normurodov Chori Begaliyevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, professor |
| | **Boltayev Aziz Kuziyevich**<br>fizika-matematika fanlari doktori, dotsent |
| **Yetakchi tashkilot:** | **Qoraqalpoq davlat universiteti** |

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.03/2025.27.12.FM.01.03 raqamli Ilmiy kengashning «___»_____ 2026 yil soat____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 227-12-24, faks: (+99871) 246-53-21, 246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (+99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2026 yil «____» _____kuni tarqatildi.
(2026 yil «____» _____ dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

**M.M. Aripov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, f.-m.f.d., professor

**Z.R. Raxmonov**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, f.-m.f.d., professor

**R.D. Aloyev**
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash huzuridagi ilmiy seminar
raisi, f.-m.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati.** Jahonda olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar natijasida funksiyalarning taxminiy ko‘rinishini qurish masalasi matematika va muhandislik sohalaridagi dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Hozirda ushbu turdagi masalalarda splayn funksiyalarni qo‘llash yetakchi o‘rinlardan birini egallamoqda. Dunyo miqyosida nafaqat sof matematika, balki mexanika, fizika, iqtisodiyot va informatikaga taalluqli muammolarni sonli yechishda splayn funksiyalar yordamida yaqinlashtirishdan atroflicha foydalaniladi. Dastlabki yaqinlashtirish usullariga ko‘phadli, kasrli, hamda eng kichik kvadratlar usuli yordamida yaqinlashtirish usullari kiradi, lekin bunday yaqinlashtirish usullari kichik silliqlikka ega funksiyalarni yaqinlashtirishda yaxshi natija bermaydi. Shu nuqtai nazardan, splaynlarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan turli xil algebraik va variatsion usullar bilan splayn funksiyalarni qurish hamda ularning tatbiqidan foydalanish muhim vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Jahonda murakkab shakldagi funksiyalarni yuqori aniqlik bilan yaqinlashtirish, differensial va integral tenglamalarni sonli yechish, grafik tasvirlash va ma’lumotlarni qayta ishlashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada, yaqinlashtirish masalalarida splaynlarni natural, mahkamlangan, davriy shakllarda qurilishi mumkin, ular bo‘lakli, past darajali polinomlar, trigonometrik, giperbolik funksiyalar, eksponensial funksiyalar bo‘lib, ma’lum darajadagi uzluksizlikni ta’minlaydi. Shuning uchun, mexanika – fizika masalalarida, robototexnika, signallarni qayta ishlash va mashinali o‘qitishda splaynlar bilan yaqinlashtirishga alohida e’tibor berilmoqda.

Respublikamizda fundamental fanlarning ilmiy va amaliy tatbiqiga ega bo‘lgan biotexnologiya, elektrodinamika, matematika-fizika, quyosh energiyasi, materialshunoslik, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar sohalarida amaliy masalalarni sonli yechishda algebraik-giperbolik natural splaynlar hamda kubatur va kvadratur formulalar qurish uchun turli optimal usullar nazariyasini ishlab chiqish yuzasidan keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2020-2023-yillarda O‘zbekiston Respublikasida matematika fanlari bo‘yicha ta’lim sifatini yaxshilash, ilmiy-tadqiqotlarning natijadorligi va amaliy ahamiyatini oshirish, jumladan, “Matematik va funksional analiz, algebra, differensial tenglamalar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika, matematik fizika, kompleks o‘zgaruvchili funksiyalar nazariyasi, hisoblash matematikasi va diskret matematika” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan[1]. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ma’lum Gilbert fazolaridagi normani minimumga erishtiruvchi variatsion algebraik-giperbolik natural splaynlarni qurish va ular yordamida tekislikda turli xil silliqlikka ega ma’lum egri chiziqlarni yuqori aniqlikda tiklash, hamda, berilgan oraliqda uzluksiz bo‘lgan funksiyalar integrallarini sonli yaqinlashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 – yil 7 – maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy – tadqiqotlarni rivojlantirish chora – tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ – 4708 – sonli qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvar PF-60-son “2022-2026- yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni, 2020-yil 7-maydagi PQ-4708-son “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmoni 2019-yil 27-apreldagi PQ-3682-son “Innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va loyihalarni amaliyotga joriy qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘grisida”gi qarori va 2021-yil 1-apreldagi PF-6198-son “Ilmiy va innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish to‘g‘risidagi farmonlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Dastlab, splayn funksiya tushunchasi 1946-yil I.Schonberg tomonidan matematik apparat sifatida kiritilgan. Splayn funksiya sifatida bir-biriga yopishtirilgan bo‘lakli kubik ko‘phad olingan. Keyinchalik chegara shartlari ko‘paytirilib va ko‘phad darajasini oshirish natijasida qurilayotgan splaynlar takomillashtirildi. Bu davrda toq va juft darajali splaynlar qurish masalalari ma’lum bir ekstremal masalalarning yechimlari kabi o‘rganildi. Ta’kidlash joizki, minimal norma masalasida asosan toq darajali splaynlar uchraydi.

Toq darajali splaynlar nazariyasiga ikki xil nuqtai nazardan yondashish mumkin: birinchisi algebraik yondashuv bo‘lib, splaynni aniqlovchi tenglamalar sistemasini tekshirishga bog‘liq; ikkinchisi variatsion bo‘lib, bunda $K^m(a,b)$ va $K^{2m}(a,b)$ fazolariga tegishli funksiyalar va yaqinlashtiruvchi splaynlar o‘rtasidagi asosiy integral munosabatdan foydalaniladi.

Variatsion usulda qurilayotgan splaynlarning keng qamrovli rivoji J.C.Holladayning 1957-yilda e’lon qilingan ilmiy ishi bilan bog‘liq. Ushbu ishda $C^2 = \{ f : [a,b] \to \mathbb{R} \mid f''$ uzluksiz$\}$ sinfga tegishli bo‘lgan bo‘lakli kubik splayn quyidagi funksionalga minimum qiymat berishi keltirilgan

$$\int_a^b [f''(x)]^2 dx.$$

Ya’ni kubik splaynlar elastik tayoqning egilish potensial energiyasining kvadratik funksiyasini minimallashtiradi. M.Attia, P.M.Anselone, P.-J.Laurent splaynlarga ma’lum bir Gilbert fazosi elementi sifatida ta’rif berishdi va ularning yaqinlashishi va yagonaligini isbotladilar, hamda splaynlarni qurish algoritmini berdilar. Splaynlar haqidagi birinchi sistematik monografiya J.H.Ahlberg, E.N.Nilson va J.L.Walshlar tomonidan berilgan. Quyidagi olimlarning ishlari turli darajada dastlabki splaynlar nazariyasi va qo‘llanishi bilan bog‘liq:

L.L.Schumaker, C.de Boor, M.J.D.Powell, A.Sard, S.Weintraub, M.H. Schultz, B.Fisher, Yu.S.Zav`yalov, B.I.Kvasov, V.L.Miroshnichenko, V.A.Vasilenko, S.B.Stechkin, Yu.N.Subbotin, M.Isroilov va boshqalar.

Variatsion usulda splayn qurishda yomon shartlangan chiziqli tenglamalar sistemasini yechish uchun S.L.Sobolev tomonidan taklif qilingan algoritmdan keng foydalaniladi. Sobolev usulidan foydalanib, $W_2^{(m,m-1)}(0,1)$, $L_2^{(m)}(0,1)$, $K_2(P_m)$ fazolaridagi yarim normani minimallashtiruvchi natural splaynlar qurilgan. Shuni ta'kidlash joizki, algebraik-giperbolik natural splaynlar va ularga mos optimal kvadratur formulalar so‘nggi yillarda faol tadqiq qilinmoqda. Ularning asosiy ustunligi shundaki, ular faqat algebraik ko‘phadlarnigina emas, balki shu bilan birga giperbolik va eksponensial funksiyalarni ham aniq tiklaydi.

So‘nggi yillarda splaynlar nazariyasi va qo‘llanishiga oid X.M.Shadimetov , A.Po‘latov, A.R.Hayotov, Z.K.Eshkuvatov , S.A.Baxromov, F.A.Nuraliyev, G.Milovanović, S.Campagna, S. de Marchi, E.Perracchione, M.Oraiche, A.Lamnii, M.Louzar, S.Eddargani, va boshqalar tomonidan salmoqli ishlar olib borilmoqda. Shuni ta'kidlash kerakki nochiziqli giperbolik, parabolik tenglamalar va sistemalarning taqribiy yechimi uchun M.M.Aripov, R.D.Aloev, Ch.B.Normurodov, D.Utebayev, Z.R.Rahmonov, M.U. Xudoyberganov va boshqalar yangi assimptotik usullarni ishlab chiqdilar va turli xil ayirmali sxemalarning turg‘unligini ko‘rsatdilar.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy – tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi V.I. Romanovskiy nomidagi Matematika instituti Hisoblash matematikasi laboratoriyasida “Gilbert fazolarida optimal kvadratur, interpolyatsion, ayirmali formulalar qurish va ularni differensial va integral tenglamalar yechishga tatbiqlari” mavzusi bo‘yicha reja asosida olib borildi.

**Tadqiqotning maqsadi** differensiallanuvchi funksiyalarning $K_{2,\nu}^{(m)}$ Gilbert fazolarida algebraik-giperbolik natural splaylarni qurish algoritmini berish va splayn koeffitsiyentlarining oshkor ko‘rinishini olish, qurilgan splaynning boshqa ma'lum splaynlardan afzallik tomonlarini ko‘rsatishdan iborat.

**Tadqiqot vazifalari:**

ushbu $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ Gilbert fazosidagi normaga minimum beruvchi algebraik-giperbolik natural splaynlar qurish uchun ma'lum differensial operatorning diskret analogidan foydalanib algoritm yaratish;

yaratilgan algoritmdan foydalanib algebraik-giperbolik natural splayinning umumiy ko‘rinishini topish va uning koeffitsiyentlari uchun tenglamalar sistemasini olish;

oltinchi tartibli algebraik-giperbolik splayn uchun minimal norma xossasini keltirish va $K_{2,\nu}^{(3)}(0,1)$ fazodagi normaga minimum qiymat beruvchi oltinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn qurish;

$K_{2,\nu}^{(4)}(0,1)$ fazodagi normaga minimum qiymat beruvchi sakkizinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn qurish;

algebraik-giperbolik natural splayn orqali $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ fazosida algebraik va giperbolik funksiyalarga aniq bo‘lgan yangi ko‘rinishdagi kvadratur formula hosil qilish.

**Tadqiqotning obyekti.** Gilbert fazolari, umumlashgan splaynlar, algebraik va giperbolik funksiyalar, diskret argumentli funksiyalar, chiziqli algebraik tenglamalar sistemasidan iboratdir.

**Tadqiqotning predmeti.** Birinchi integral munosabat, minimal norma xossasi, $K_{2,\nu}^{(m)}$ Gilbert fazosidagi normaga minimum beruvchi algebraik-giperbolik natural splayn, diskret Viner-Xopf tenglamalar sistemasi, $K_{2,\nu}^{(m)}$ fazosida optimal kvadratur formula, differensial operatorning diskret analogidan iborat.

**Tadqiqotning usullari.** Ilmiy tadqiqot ishida hisoblash matematikasi, funksional analiz, matematik analiz, umumlashgan funksiyalar, differensial tenglamalar, differensial operatorning diskret analogi, hamda, diskret argumentli funksiyalar nazariyasidan keng foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

ushbu $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ Gilbert fazosidagi normaga minimum beruvchi algebraik-giperbolik natural splaynlar qurish uchun ma’lum differensial operatorning diskret analogidan foydalanib algoritm yaratilgan;

yaratilgan algoritmdan foydalanib algebraik-giperbolik natural splayinning umumiy ko‘rinishi topilgan va uning koeffitsiyentlari uchun tenglamalar sistemasini olingan;

oltinchi tartibli algebraik-giperbolik splayn uchun minimal norma xossasi keltirilgan va $K_{2,\nu}^{(3)}(0,1)$ fazodagi normaga minimum qiymat beruvchi oltinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn qurilgan;

$K_{2,\nu}^{(4)}(0,1)$ fazodagi normaga minimum qiymat beruvchi sakkizinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn qurilgan;

algebraik-giperbolik natural splayn orqali $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ fazosida algebraik va giperbolik funksiyalarga aniq bo‘lgan yangi ko‘rinishdagi kvadratur formula hosil qilingan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

qurilgan algebraik-giperbolik natural splaynlar ma’lum mexanika masalalarni yechishga, jumladan, yer sirtining tasvirlarini qayta ishlash uchun neyron tarmoqlari ansambillariga tatbiq qilingan.

qurilgan algebraik-giperbolik natural splaynlardan bir va ikki o‘lchovli fraktal tuzilishli naqshlarni qurishda foydalanilgan. Natijada, to‘qimachilik dizaynida murakkab fraktal tuzilishidagi tasvirlardan foydalanish imkoniyati yaxshilangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Dissertatsiya ishida olingan natijalar funksional analiz, hisoblash matematikasi usullari, diskret argumentli funksiyalar nazariyalaridan foydalanib matematik jihatdan asoslangan, hamda, qurilgan splayn funksiyalarning yaqinlashish aniqligi sonli natijalarda ko‘rsatilgan.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati $K_{2,\nu}^{(m)}$ fazosidagi normaga minimum qiymat beruvchi algebraik-

giperbolik natural splayn qurish va qurilgan splayn $\sinh(vx), \cosh(vx)$ hamda $m-3$ darajali ko‘phadlarni aniq tiklashi va taranglik koeffitsiyentining turli qiymatlarida yaqinlashish xatoligini yanada kamaytirish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qurilgan algebraik–giperbolik natural splayn kompyuter grafikasi va 3D modellashtirish, sun’iy intellekt va raqamli signallarni qayta ishlash, tibbiyotda tasvirlarni qayta tiklash bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi**. Ushbu algebraik-giperbolik natural splaynlarni qurish va ularni tatbiq qilish bo‘yicha olingan natijalar asosida:

ushbu $K_{2,v}^{(m)}(0,1)$ Gilbert fazosida qurilgan interpolyatsion natural splaynlardan IL-4821091604 “Yer sirtining tasvirlarini qayta ishlash uchun pretsedentlar bo‘yicha qaror qabul qilish qoidalarini qo‘llagan holda tasvirlarni idendifikatsia qilivchi neyron tarmoqlari ansambillari” mavzusidagi fundamental loyihada tasvirning taxminiy ko‘rinishini tiklashda qo‘llanilgan. (Raqmli texnologiyalar va sun’iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot institutining 2025-yil 21-oktyabrdagi 27-8-690 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, splaynlar bilan funksiyalarni yaqinlashtirishdagi absolyut xatoliklar yaxshilangan, olingan natijalar mexanika masalalarni yechishga tatbiq qilingan;

$2m-$tartibli algebraik-giperbolik natural splaynlardan AL-662204323 “Gazlama va gilamlardagi fraktal tuzilishli milliy naqshlarning modellari, algoritmlari va dasturiy majmualarini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihada bir va ikki o‘lchovli fraktal tuzilishli naqshlarni qurishda qo‘llanilgan. (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining 2026-yil 9-yanvardagi 74-05-2 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, to‘qimachilik dizaynida murakkab fraktal tuzilishidagi tasvirlardan foydalanish imkoniyati yaxshilangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 16 ta ilmiy-amaliy anjumanlarda, jumladan 12 ta xalqaro va 4 tasi respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 21 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ulardan, 1 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan, shuningdek elektron hisoblash mashinalari uchun dasturni rasmiy ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi dasturiy guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovadan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 92 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, muammoning o‘rganilganlik darajasi, mavzu bo‘yicha dunyo miqyosidagi ilmiy-tadqiqotlar sharhi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Ushbu dissertatsiyaning **“Splayn funksiyalar”** nomli birinchi bobida qaralayotgan fazoda masala qo‘yilgan va masalani yechish uchun muhim ta’rif va teoremalar keltirilgan.

Unga ko‘ra umumlashgan splayn quyidagicha ta‘riflanadi. Faraz qilaylik, quyidagi ko‘rinishda aniqlangan $L$ differensial operator berilgan bo‘lsin.

$$L \equiv a_m(x)\frac{d^m}{dx^m} + a_{m-1}(x)\frac{d^{m-1}}{dx^{m-1}} + ...a_1(x)\frac{d}{dx} + a_0(x),$$

bu yerda $a_m(x) \neq 0,\ a_j(x) \in C^j[a,b],\ (j = 0,1...,m).$

Ushbu operatorning qo‘shmasi $L^*$ ko‘rinishida belgilanadi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$L^* \equiv (-1)^m \frac{d^m}{dx^m}\{a_m(x)\cdot\} + (-1)^{m-1}\frac{d^{m-1}}{dx^{m-1}}\{a_{m-1}(x)\cdot\} + ...(-1)\frac{d}{dx}\{a_1(x)\cdot\} + a_0(x).$$

Bizga quyidagicha aniqlangan funksiyalar sinfi berilgan bo‘lsin:

$$K^{(m)}(a,b) = \{f : [a,b] \to R,\ f^{(m-1)}(x) - \text{absolyut uzluksiz},\ f^{(m)} \in L_2(a,b)\}. \qquad (1)$$

Ushbu $K^{(m)}(a,b)$ funksiyalar sinfi quyidagi skalyar ko‘paytma bilan faktorizatsiya qilingan Gilbert fazosini tashkil qiladi

$$< f, g >_{K^{(m)}(a,b)} = \int_a^b Lf(x)Lg(x)dx,$$

norma skalyar ko‘paytma yordamida quyidagicha aniqlanadi:

$$\| f \|_{K^{(m)}(a,b)} = \sqrt{\int_a^b (Lf(x))^2 dx}. \qquad (2)$$

U holda umumlashgan splayn ta’rifi quyidagicha kiritiladi.

**1-ta’rif** Ushbu $\Delta : a = x_0 < x_1 < ... < x_N = b$ bu $[a,b]$ dagi to‘r bo‘lsin. $\Delta$ to‘rga nisbatan aniqlangan defekti $k$ ga teng bo‘lgan Splayn bu $K^{2m-k}(a,b)$ sinfga tegishli bo‘lgan va $\Delta$ to‘rdagi har bir ochiq intervalda

$$L^* L S_\Delta = 0 \qquad (3)$$

differensial tenglamani qanoatlantiruvchi $S_\Delta(x)$ funksiyadir.

Umumlashgan splaynlar uchun birinchi integral munosabat haqidagi quyidagi teorema o‘rinli.

**1- teorema.** Agar $f(x)\in K^{(m)}(a,b)$ bo‘lib, $S_\Delta(f,x)$ bu $\Delta$ to‘rga nisbatan defekti 1 ga teng umumlashgan splayn hamda $\Delta$ to‘rning tugun nuqtalarida $f(x_j)-S_\Delta(x_j)=(j=0,1,...,N)$ qiymatlarni qabul qilsa va quyidagi shartlardan birini bajarsa

a) Umumlashgan $S_\Delta(f,x)$ splayn $\Delta$ to‘rning chetki nuqtalarida quyidagi qiymatlarni qabul qilsa $(LS_\Delta(f,b))^{(k)}=0,\ (LS_\Delta(f,a))^{(k)}=0, k=0,1,...,m-2$

b) $S_\Delta(f,x)$ splayn va $f(x)$ funksiya quyidagi chegaraviy shartlarni bajarsa $f^{(m-1-j)}(a)=S^{(m-1-j)}(f,a),\ f^{(m-1-j)}(b)=S^{(m-1-j)}(f,b),\ \ j=0,....,m-2$

c) $S_\Delta(f,x)$ splayn va $f(x)$ funksiyalar davriy

U holda quyidagi birinchi integral munosabat o‘rinli

$$\int_a^b\{Lf(x)\}^2dx=\int_a^b\{L[f(x)-S_\Delta(x)]\}^2dx+\int_a^b\{LS_\Delta(x)\}^2. \qquad (4)$$

Agar yuqoridagi teorema1 dagi a), b), c) shartlardan biri bajarilsa, u holda (4) birinchi integral munosabatdan quyidagi kelib chiqadi

$$\int_a^b\{Lf(x)\}^2dx\ge\int_a^b\{LS_\Delta(x)\}^2dx. \qquad (5)$$

Oxirgi tengsizlik $K^{(2m-1)}(a,b)$ dagi $2m-$taribli umumlashgan $S_\Delta(f,x)$ interpolyatsion splaynning minimal norma xossasini ifodalaydi.

Endi Gilbert fazosi ta’rifini keltiramiz:

**2-ta’rif.** Cheksiz o‘lchamli to‘la Evklid fazosi *Gilbert fazo* deyiladi.

Birinchi bobning to‘rtinchi paragrafida esa masalaning qo‘yilishi keltirilgan.

$L$ differensial operatorning turli ko‘rinishlari uchun $L$ splaynlar qurilgan. Shuni ta’kidlash kerakki $L$ differensial operator quyidagi

$$L_m\equiv\frac{d^m}{dx^m}-v^2\frac{d^{m-2}}{dx^{m-2}} \qquad (6)$$

shaklda bo'lganda interpolyatsion natural splayn qurish masalasi hali ochiqligicha turibdi. Berilgan operetorga mos fazo ta’rifini keltiramiz.

**3-ta’rif.** Ushbu $K_{2,v}^{(m)}(a,b)$ to‘plam shunday $\varphi$ funksiyalar sinfiki ular $[a,b]$ da $m-1$- tartibgacha hosilalari absolyut uzluksiz va $m$- tartibli umumlashgan hosilasi $L_2(a,b)$ fazoga tegishli. $K_{2,v}^{(m)}(a,b)$ sinfi ushbu skalyar ko‘paytma bilan faktorizatsiya qilingan Gilbert fazoni tashkil qiladi

$$(\varphi,\psi)_{K_{2,v}^{(m)}(a,b)}=\int_a^b(\varphi^{(m)}-v^2\varphi^{(m-2)})\cdot(\psi^{(m)}-v^2\psi^{(m-2)})dx.$$

ushbu fazoda norma skalyar ko‘paytma orqali kiritiladi

$$\|\varphi\|_{K_{2,v}^{(m)}(a,b)}=(\int_a^b(\varphi^{(m)}-v^2\varphi^{(m-2)})^2dx)^{1\backslash2}.$$

Faraz qilaylik $\Delta: 0=x_0<x_1...<x_N=1$ to’rdagi $x_\beta$ tugun nuqtalarda $y_\beta$ qiymatlar berilgan bo‘lsin. $K_{2,v}^{(m)}(0,1)$ fazosida quyidagi masalani qaraymiz.

**1-masala.** Ushbu $K_{2,v}^{(m)}$ fazodagi

$$f(x_\beta) = y_\beta, \ \ \beta = 0,1,...,N,$$

Shartlarini qanoatlantiruvchi barcha $f$ funksiyalalar orasidan $\{\int_0^1 (f^{(m)}(x) - v^2 f^{(m-2)}(x))^2 dx\}^{\frac{1}{2}}$ kattalikka minimum qiymat beruvchi $S_{\Delta,m}(x)$ funksiyani topish.

Ushbu masalani yechish uchun quyidagi (7)-operatorning

$$L_m^* L_m \equiv \frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 2v^2 \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}} + v^4 \frac{d^{2m-4}}{dx^{2m-4}} \tag{7}$$

fundamental yechimi va diskret analogi muhim rol o‘ynaydi. (7) operatorning fundamental yechimi quyidagicha:

$$G_m(x) = \frac{\operatorname{sgn}(x)}{4v^{2m-1}} \left( vx\cosh(vx) - (2m-3)\sinh(vx) + 2\sum_{k=1}^{m-2} \frac{(m-k-1)(vx)^{2k-1}}{(2k-1)!} \right). \tag{8}$$

(7) differensial operatorning diskret analogi uchun quyidagi teorema o‘rinli.

**2-teorema.** Ushbu $\frac{d^{2m}}{dx^{2m}} - 2v^2 \frac{d^{2m-2}}{dx^{2m-2}} + \frac{d^{2m-4}}{dx^{2m-4}}$ differensial operatorning diskret analogi quyidagi ko‘rinishga ega

$$D_m(h\beta) = \frac{2v^{2m-1}}{p_{2m-2}^{(2m-2)}} \begin{cases} \sum_{k=1}^{m-1} A_k \lambda_k^{|\beta|-1}, & |\beta| \geq 2, \\ 1 + \sum_{k=1}^{m-1} A_k, & |\beta| = 1, \\ C_m + \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_k}{\lambda_k}, & \beta = 0, \end{cases} \tag{9}$$

bu yerda $p_{2m-2}^{(2m-2)}, C_m, A_k, \lambda_k$ lar ma’lum hadlar.

Dissertatsiyaning “**Algebraik-giperbolik natural splaynlar**” deb nomlangan ikkinchi bobining birinchi paragrafda $2m-$tartibli algebraik-giperbolik natural splaynlarni qurish algoritmi berilgan, keyingi paragraflarda oltinchi va sakkizinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splaynlar aniq qurilgan.

1- masalaning yechimi $2m$-tartibli algebraik-giperbolik natural splayn bo‘ladi va ushbu splaynga quyidagicha ta’rif beramiz.

**4-ta’rif.** Bizga [0,1] kesmada $\Delta: 0 = x_0 < x_1 < x_2 < ... < x_N = 1$ to‘r berilgan bo‘lsin. $\Delta$ to‘rda aniqlangan defekti 1 ga teng $2m$-tartibli algebraik-giperbolik natural splayn bu quyidagi shartlar asosida yagona ko‘rinishda aniqlanadigan funksiyadir:

I. $S_{\Delta,m}(x)$ funksiya har bir $(x_i, x_{i+1}), i = 0,1,...,N-1$ oraliqda $\sinh vx$, $\cosh vx$, $P_{2m-5}(x)$, $vx\sinh v$, $vx\cosh vx$ funksiyalar kombinatsiyasidan iboratdir.

II. $S_{\Delta,m}(x)$ funksiya $(-\infty, a)$, $(b, +\infty)$ oraliqlarning har birida $\sinh vx$, $\cosh vx$, $P_{m-3}(x)$ funksiyalar kombinatsiyasidan iboratdir.

III. $S_{\Delta,m}(x)$ funksiya quyidagi uzluksizlik va natural splayn bo‘lish shartlarini qanoatlantiradi

$$S_{\Delta,m}^{(\alpha)}(x_i-0)=S_{\Delta,m}^{(\alpha)}(x_i+0),\ \alpha=0,1...,2m-2,\ i=1,2,...,N-1,$$

$$S_{\Delta,m}^{(\alpha+m)}(0)-\nu^2 S_{\Delta,m}^{(\alpha+m-2)}(0)=S_{\Delta,m}^{(\alpha+m)}(1)-\nu^2 S_{\Delta,m}^{(\alpha+m-2)}(1)=0,\ \alpha=0,...,m-2$$

IV. $S_{\Delta,m}(x)$ funksiya quyidagi interpolyatsiya shartlarini qanoatlantiradi

$$S_{\Delta,m}(x_\beta)=y_\beta,\ \beta=0,1,...,N.$$

Endi 1-masalaning yechimini beruvchi splayn ko‘rinishi haqidagi quyidagi teoremani keltiramiz.

**3-teorema.** Ushbu $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ fazodagi yarim normaga minimum beruvchi algebraik-giperbolik natural splayn quyidagi ko‘rinishga ega

$$S_{\Delta,m}(x)=\sum_{\gamma=0}^{N}C_\gamma G_m(x-x_\gamma)+d_1\sinh(\nu x)+d_2\cosh(\nu x)+\sum_{\alpha=0}^{m-3}p_\alpha x^\alpha . \qquad (10)$$

Bu yerda, $C_\gamma$ $(\gamma=0,1,...,N)$, $d_1,d_2$, $p_\alpha$ $(\alpha=0,1,...,m-3)$ lar noma’lumlardir va $G_m(x)$ bu (8) formula orqali berilgan.

Natural splayn koeffitsiyentlarini topish uchun quyidagi teorema o‘rinli.

**4-teorema.** Ushbu $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ fazodagi algebraik-giperbolik $2m$- tartibli natural splayn koeffitsiyentlari quyidagi sistemani qanoatlantiradi

$$\sum_{\gamma=0}^{N}C_\gamma G_m(x_\beta-x_\gamma)+d_1\sinh(\nu x_\beta)+d_2\cosh(\nu x_\beta)+\sum_{\alpha=0}^{m-3}p_\alpha {x_\beta}^\alpha=f(x_\beta),\beta=0,1,...,N \qquad (11)$$

$$\sum_{\gamma=0}^{N}C_\gamma\sinh(\nu x_\gamma)=0 \qquad (12)$$

$$\sum_{\gamma=0}^{N}C_\gamma\cosh(\nu x_\gamma)=0 \qquad (13)$$

$$\sum_{\gamma=0}^{N}C_\gamma x_\gamma^\alpha=0,\ \alpha=0,1,...,m-3 \qquad (14)$$

Endi (10) splayn koeffitsiyentlarini topish uchun algoritm beramiz. Bunda $x_\beta$ tugun nuqtalarni teng taqsimlangan deb olamiz $x_\beta=h\beta, h=1/N, N=1,2,....$

Faraz qilaylik, $\beta<0$ and $\beta>N$ bo‘lganda $C_\beta=0$ bo‘lsin. O‘rama amalini qo‘llab (13)-(16) sistemani quyidagi ko‘rinishda yozib olamiz.

$$G_m(h\beta)*C_\beta+d_1\sinh(\nu h\beta)+d_2\cosh(\nu h\beta)+\sum_{\alpha=0}^{m-3}p_\alpha\cdot(h\beta)^\alpha=f(h\beta),\ \beta=0,1,...N \qquad (15)$$

$$\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta\sinh(\nu h\beta)=0 \qquad (16)$$

$$\sum_{\beta=0}^{N}C_\beta\cosh(\nu h\beta)=0 \qquad (17)$$

$$\sum_{\beta=0}^{N} C_\beta (h\beta)^\alpha = 0,\ \alpha = 0,1,...,m-3 \qquad (18)$$

Ushbu holatda 1-masalaga ekvivalent bo‘lgan quyidagi masalaga kelamiz.

**2-masala.** (15)–(18) tenglamalar sistemasini qanoatlantiruvchi $C_\beta, \beta = 0,1,...,N$ va $d_1, d_2, p_\alpha, \alpha = 0,1,...,m-3$ koeffitsiyentlarni toping.

Quyidagicha belgilashlarni kiritib olamiz:

$$\mu_m(h\beta) = G_m(h\beta) * C_\beta, \qquad (19)$$

$$u_m(h\beta) = \mu_m(h\beta) + d_1 \sinh(h\beta) + d_2 \cosh(h\beta) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha (h\beta)^\alpha . \qquad (20)$$

$D_m(h\beta)$ diskret analogning xossalaridan foydalanib $C_\beta$ koeffitsiyentlar uchun quyidagi ifodani olamiz

$$C_\beta = D_m(h\beta) * u_m(h\beta). \qquad (21)$$

bu yerda $u_m(h\beta)$ funksiya quyidagicha ifodaga ega

$$u_m(h\beta) = \begin{cases} d_1^- \sinh(h\beta) + d_2^- \cosh(h\beta) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha^-(h\beta)^\alpha, & \beta \le 0, \\ f(h\beta), & 0 \le \beta \le N, \\ d_1^+ \sinh(h\beta) + d_2^+ \cosh(h\beta) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha^+(h\beta)^\alpha, & \beta \ge N, \end{cases} \qquad (22)$$

(22) ifodadagi noma’lum hadlarni topish uchun $C_\beta = D_m(h\beta) * u_m(h\beta) = 0,$ $h\beta \notin [0,1]$ ekanligidan foydalanib, quyidagi masalani yechamiz.

**3-masala.** Quyidagi tenglamani yechish orqali $u_m(h\beta)$ funksiyaning $d_i^+, d_i^-, (i = 1,2),\ p_\alpha^+, p_\alpha^-, (\alpha = 0,1,...,m-3)$ noma’lum parametrlarini topish

$$D_m(h\beta) * u_m(h\beta) = 0,\ h\beta \notin [0,1]. \qquad (23)$$

Ushbu tenglama yordamida $D_m(h\beta)$ differensial operatorni qo‘llab $u_m(h\beta)$ ning oshkor ko‘rinishini topiladi. So‘ng (21)-ifodadan $C_\beta, (\beta = 0,1,...,N)$ koeffitsiyentlarni topamiz. Natijada 3-masala, 2-masala va 1 –masala ham yechiladi.

1-masalaning yechimi bo‘lgan (10) splayn koeffitsiyentlari uchun quyidagi teoremani oldik.

**5-teorema.** Ushbu $K_{2,\nu}^{(m)}(0,1)$ fazoda teng taqsimlangan tugun nuqtalar bilan shu fazodagi yarim normani minimallashtiruvchi algebraik-giperbolik natural splayn koeffitsiyentlarining oshkor ko‘rinishi quyidagicha:

$$C_0 = \frac{2\nu^{2m-1}}{p_{2m-2}^{(2m-2)}} \left[ -d_1^- \sinh(\nu h) + d_2^- \cosh(\nu h) + Cy(0) + y(h) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha^-(-h)^\alpha \right] +$$

$$+ \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_k 2\nu^{2m-1}}{\lambda_k p_{2m-2}^{(2m-2)}} \left[ \sum_{\gamma=0}^{N} \lambda^\gamma y(h\gamma) + M_k + \lambda_k^N N_k \right],$$

$$C_\beta = \frac{2v^{2m-1}}{p_{2m-2}^{(2m-2)}}\left[y(h\beta - h) + Cf(h\beta) + f(h\beta + h)\right] +$$
$$+ \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_k 2v^{2m-1}}{\lambda_k p_{2m-2}^{(2m-2)}}\left[\sum_{\gamma=0}^{N} \lambda_k^{|\beta-\gamma|} f(h\gamma) + \lambda_k^{\beta} M_k + \lambda_k^{N-\beta} N_k\right],\ \beta = 1,2,...,N-1,$$
$$C_N = \frac{2v^{2m-1}}{p_{2m-2}^{(2m-2)}}\left[Cf(1) + f(1-h) + d_1^+ \sinh(v+vh) + d_2^+ \cosh(v+vh) + \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha^+ (1+h)^\alpha\right] +$$
$$+ \sum_{k=1}^{m-1} \frac{A_k 2v^{2m-1}}{\lambda_k p_{2m-2}^{(2m-2)}}\left[\sum_{\gamma=0}^{N} \lambda_k^{N-\gamma} f(h\gamma) + \lambda_k^{N} M_k + N_k\right],$$

$$d_i = \frac{1}{2}(d_i^+ + d_1^-),\ \ p_\alpha = \frac{1}{2}(p_\alpha^+ + p_\alpha^-),\ \ p_\alpha = 0,1,...,m-3$$

bu yerda

$$M_k = \frac{\lambda_k[d_2^-(\cosh(vh) - \lambda_k) - d_1^- \sinh(vh)]}{1 + \lambda_k^2 - 2\lambda_k \cosh(vh)} + \sum_{\alpha=1}^{m-3} p_\alpha^- (-h)^\alpha \sum_{i=1}^{\alpha} \frac{\lambda_k^i \Delta^i 0^\alpha}{(1-\lambda_k)^{i+1}} + \frac{p_0^- \lambda_k}{1-\lambda_k},$$

$$N_k = \frac{\lambda_k[d_1^+(\sinh(vh+v) - \lambda_k \sinh v) + d_2^+(\cosh((vh+v) - \lambda_k \cosh v)]}{1 + \lambda_k^2 - 2\lambda_k \cosh(vh)} +$$

$$+ \sum_{\alpha=1}^{m-3} p_\alpha^+ \left(\sum_{j=1}^{\alpha} C_\alpha^j h^j \sum_{i=1}^{j} \frac{\lambda_k^i \Delta^i 0^j}{(1-\lambda_k)^{i+1}} + \frac{\lambda_k}{1-\lambda_k}\right) + \frac{p_0^+ \lambda_k}{1-\lambda_k},$$

va $p_{2m-2}^{(2m-2)}, A_k, C_m, \lambda_k$ lar 2-teoremada berilgan,

$$d_2^- = f(0) - p_0^-,\ d_2^+ = \frac{f(1) - d_1^+ \sinh(v) - \sum_{\alpha=0}^{m-3} p_\alpha^+}{\cosh(v)}, \qquad (24)$$

va $d_1^+, d_1^-,\ p_\alpha^+, p_\alpha^-, (\alpha = 0,1,...,m-3)$ lar esa quyidagi sistemadan topiladi.

$$\begin{pmatrix}
B_{d_1^-}[1,1] & B_{p_0^-}[1,2] & . & B_{p_{m-3}^-}[1,m-1] & B_{d_1^+}[1,m] & B_{p_0^+}[1,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[1,2m-2] \\
B_{d_1^-}[2,1] & B_{p_0^-}[2,2] & . & B_{p_{m-3}^-}[2,m-1] & B_{d_1^+}[2,m] & B_{p_0^+}[2,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[2,2m-2] \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
B_{d_1^-}[m-1,1] & B_{p_0^-}[m-1,2] & . & B_{p_{m-3}^-}[m-1,m-1] & B_{d_1^+}[m-1,m] & B_{p_0^+}[m-1,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[m-1,2m-2] \\
B_{d_1^-}[m,1] & B_{p_0^-}[m,2] & . & B_{p_{m-3}^-}[m,m-1] & B_{d_1^+}[m,m] & B_{p_0^+}[m,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[m,2m-2] \\
B_{d_1^-}[m+1,1] & B_{p_0^-}[m+1,2] & . & B_{p_{m-3}^-}[m+1,m-1] & B_{d_1^+}[m+1,m] & B_{p_0^+}[m+1,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[m+1,2m-2] \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
. & . & . & . & . & . & . & . \\
B_{d_1^-}[2m-2,1] & B_{p_0^-}[2m-2,2] & . & B[2m-2,m-1] & B_{d_1^+}[2m-2,m] & B_{p_0^+}[2m-2,m+1] & . & B_{p_{m-3}^+}[2m-2,2m-2]
\end{pmatrix}
\times
\begin{pmatrix} d_1^- \\ p_0^- \\ . \\ . \\ . \\ p_{m-3}^- \\ d_1^+ \\ p_0^+ \\ . \\ . \\ . \\ p_{m-3}^+ \end{pmatrix}
=
\begin{pmatrix} T_1 \\ T_2 \\ . \\ . \\ . \\ T_{m-1} \\ T_m \\ T_{m+1} \\ . \\ . \\ . \\ T_{2m-2} \end{pmatrix} \qquad (25)$$

Endi oltinchi tartibli algebraik-giperbolik splayn uchun minimal norma xossasini ifodalovchi quyidagi birinchi integral munosabat o‘rinli

**5-ta'rif.** $0 = x_0 < x_1 < ... < x_N = 1$ to'rga nisbatan defekti 1 ga teng bo'lgan oltinchi tartibli algebraik-giperbolik splayn bu [0,1] kesmadagi $K^{(5)}$ sinfdan olingan $S_{\Delta,3}(x)$ funksiya bu har bir ochiq $(x_{i-1}, x_i), i = 1,2,..., N$ intervalda quyidagi differensial tenglamani qanoatlantiradigan funksiyadir

$$L_3^* L_3 S_{\Delta,3} = 0. \qquad (26)$$

**1-natija.** Agar $f(x)$ funksiya $K_{2,v}^{(3)}$ fazoga tegishli bo'lsa, u holda $S_{\Delta,3}(f,x)$ splayn uni $0 = x_0 < x_1 < ... < x_N = 1$ to'rda interpolyatsiya qilsa va quyidagi shartlardan birontasini qanoatlantirsa:

a) $f(x)$ funksiya va $S_{\Delta,3}(f,x)$ oltinchi tartibli algebraik-giperbolik interpolyatsion splayn uchun $\Delta$ to'rning chetki nuqtalarida quyidagi tenglik o'rinli bo'lsa
$L_3 S_{\Delta,3}(f;0) = 0,\ L_3 S_{\Delta,3}(f;1) = 0,\ (L_3 S_{\Delta,3}(f;0))' = 0,\ (L_3 S_{\Delta,3}(f;1))' = 0,$

b) $f(x)$ funksiya va $S_{\Delta,3}(f,x)$ oltinchi tartibli algebraik-giperbolik interpolyatsion splayn quyidagi chegaraviy shartlarni qanoatlantirsa
$f'(0) = S_{\Delta,3}'(f,0),\ f'(1) = S_{\Delta,3}'(f,1),\ f''(0) = S_{\Delta,3}''(f,0),\ f''(1) = S_{\Delta,3}''(f,1)$ ,

c) $f(x)$ funksiya $K_{2,v}^{(3)}$ fazoga tegishli davriy va $S_{\Delta,3}(f,x)$ oltinchi tartibli algebraik-giperbolik interpolyatsion splayn davriy bo'lsa,

u holda oltinchi tartibli algebraik-giperbolik interpolyatsion splayn uchun quyidagi birinchi integral munosabat o'rinli bo'ladi

$$\int_0^1 \{L_3 f(x)\}^2 dx = \int_0^1 \{L_3 S_{\Delta,3}(f;x)\}^2 dx + \int_0^1 \{L_3[f(x) - S_{\Delta,3}(f;x)]\}^2 dx. \qquad (27)$$

$m = 3$ bo'lganda 1-masalaning yechimini beruvchi oltinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn ko'rinishi va koeffitsiyentlari haqidagi quyidagi teoremani oldik.

**6-teorema**. $K_{2,v}^{(3)}$ fazosidagi normaga minimum beruvchi funksiya algebraik – giperbolik natural splayn bo'lib, u quyidagi ko'rinishda bo'ladi

$$S_{\Delta,3}(f,x) = \sum_{\gamma=0}^{N} C_\gamma G_3(x - x_\gamma) + d_1 \sinh(vx) + d_2 \cosh(vx) + d_3, \qquad (28)$$

bu yerda $C_\gamma,\ \gamma = 0,1,..., N,\ d_1,\ d_2, d_3$ - (28)- splayn koeffitsiyentlari va quyidagi chiziqli tenglamalar sistemasini qanoatlantiradi

$$\sum_{\gamma=0}^{N} C_\gamma G_3(x_\beta - x_\gamma) + d_1 \sinh(vx_\beta) + d_2 \cosh(vx_\beta) + d_3 = f(x_\beta),\ \beta = 0,1,..., N, \qquad (29)$$

$$\sum_{\gamma=0}^{N} C_\gamma \sinh(vx_\gamma) = 0, \qquad (30)$$

$$\sum_{\gamma=0}^{N} C_\gamma \cosh(vx_\gamma) = 0, \qquad (31)$$

$$\sum_{i=0}^{N} C_i = 0, \tag{32}$$

Oltinchi tartibli algebraik-giperbolik natural splayn koeffitsiyentlari uchun quyidagi teorema o‘rinli.

